



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 268 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilorom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yaqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari moslashuvining psixologik yondashuvi	254
G. R. Ibragimova, Abduraimova Difuza	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	258
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotning o'zaro bog'liqligi	262
Avlayev Orif Umirovich	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA SOTSIAL INTELLEKT VA SHAXSLILIK KAMOLOTNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Avlayev Orif Umirovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Psixologiya kafedrası professori (DSc)

ORCID: 0009-0003-8342-1774

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarida sotsial intellekt va shaxs kamoloti ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi empirik tadqiqot asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – bo'lajak pedagoglarning o'zgalarni tushunish, muloqotga kirishish hamda ijtimoiy vaziyatlarni adekvat baholash qobiliyati ularning shaxsiy yetuklik darajasiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Maqolada mazkur bog'liqlikning empirik ko'rsatkichlari, psixologik qonuniyatlari hamda pedagogik faoliyat samaradorligidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Olingan natijalar bo'lajak o'qituvchilarning emotsional intellekti va ijtimoiy adaptatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida sotsial intellekt va shaxsiy kamolotni kompleks rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: sotsial intellekt, shaxs kamoloti, pedagog shaxsi, muloqotni tushunish, verbal ekspressiya, noverbal xulq-atvor, erishganlik motivatsiyasi, hayotiy ustanovka, shaxs yetukligi, ijtimoiy ta'sirchanlik, shaxslararo munosabatlar.

Abstract: This article analyzes the relationship between social intelligence and personality development indicators among students of pedagogical education based on empirical research. The main objective of the study is to determine how the ability of future teachers to understand others, engage in communication, and adequately assess social situations influences their level of personal maturity. The article presents empirical indicators of this relationship, its psychological patterns, and its role in enhancing the effectiveness of pedagogical activity. The findings provide a basis for developing practical recommendations aimed at fostering emotional intelligence and social adaptation among future teachers. The results substantiate the necessity of the comprehensive development of social intelligence and personal maturity in the process of teacher training.

Key words: social intelligence, personality development, teacher personality, understanding in communication, verbal expression, nonverbal behavior, achievement motivation, life attitude, personal maturity, social sensitivity, interpersonal relations.

Аннотация: В статье на основе эмпирического исследования анализируется взаимосвязь показателей социального интеллекта и личностного развития студентов педагогического направления подготовки. Основная цель исследования – определить, каким образом способность будущих педагогов понимать других людей, вступать в коммуникацию и адекватно оценивать социальные ситуации влияет на уровень их личностной зрелости. В статье раскрываются эмпирические показатели данной взаимосвязи, её психологические закономерности, а также роль в повышении эффективности педагогической деятельности. Полученные результаты служат основой для разработки практических рекомендаций, направленных на развитие эмоционального интеллекта и социальной адаптации будущих учителей. Результаты исследования обосновывают необходимость комплексного развития социального интеллекта и личностной зрелости в процессе подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: социальный интеллект, личностное развитие, личность педагога, понимание общения, вербальная экспрессия, невербальное поведение, мотивация достижения, жизненная установка, личностная зрелость, социальная восприимчивость, межличностные отношения.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar murakkablashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldiga nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish vazifasi qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyatda pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda: o'qituvchi faqat axborot yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy hamkor, tarbiyachi, motivator va shaxsiy namuna sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotining o'zaro uyg'un rivojlanishi masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi.



Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchi shaxsiga nisbatan yangicha talablarni qo'yimoqda. Bugungi kun pedagogi nafaqat o'z fanining chuqur bilimdoni, balki murakkab ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, muloqot jarayonida emotsional barqarorlikni saqlaydigan va o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirisha oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellektni rivojlantirish ularning kasbiy va shaxslilik kamolotini ta'minlashning asosiy omilidir.

Sotsial intellekt insonning ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash, boshqalarning xulq-atvori va niyatlarini tushunish hamda o'z xatti-harakatlarini vaziyatga mos ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Psixologiyada sotsial intellekt ko'pincha "issiq" intellekt (hot intelligence) tarkibida o'rganilib, u shaxsdagi empatiya, refleksiya va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchining shaxslilik kamoloti esa uning o'z-o'zini anglashi, kasbiy identifikatsiyasi va axloqiy qadriyatlari shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu ikki hodisaning o'zaro bog'liqligini tadqiq etish pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ob'ekti. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi va shaxslilik kamoloti jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Bo'lajak o'qituvchilar sotsial intellekti darajasining ularning shaxslilik xususiyatlari va kasbiy kamoloti bilan o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari.

Tadqiqot maqsadi. Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellektning shakllanish xususiyatlarini aniqlash hamda uning shaxslilik kamolotiga ta'sir etish mexanizmlarini psixologik jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Psixologiya fanida sotsial intellekt va shaxslilik kamoloti tushunchalariga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish.
2. Bo'lajak o'qituvchilar sotsial intellektining tarkibiy qismlarini aniqlash.
3. Shaxslilik xislatlari va sotsial intellekt ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni o'rganish.
4. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning sotsial-psixologik kompetentligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sotsial intellekt tushunchasi ilk bor ilmiy muomalaga Edvard Torndayk tomonidan kiritilib, u insonlarning boshqalarni tushunish va ular bilan oqilona munosabat o'rnatish qobiliyati sifatida izohlangan. Keyinchalik bu g'oya J. P. Gifford tomonidan intellekt tuzilmasi nazariyasi doirasida rivojlantirildi. Hozirgi davrda sotsial intellekt shaxsning empatiya, verbal va nonverbal signallarni anglash, ijtimoiy vaziyatni adekvat baholash hamda samarali muloqot o'rnatish kompetensiyalarini qamrab oluvchi murakkab psixologik konstrukt sifatida qaralmoqda ^[1].

Pedagogik faoliyat "inson-inson" tizimiga mansub bo'lib, unda o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning shaxsiy yetukligi va sotsial sezgiriligiga bog'liq. O'quvchi shaxsini tushunish, uning emotsional holatini anglash, individual yondashuvni ta'minlash hamda samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayonida sotsial intellekt hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxslilik kamoloti – ya'ni qadriyatlar tizimi, iymon-e'tiqodlilik, mas'uliyatlilik, adolatlilik, empatiya va refleksivlik kabi sifatning shakllanishi – pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchidan nafaqat fan bilimdonligini, balki kommunikativ madaniyat, emotsional barqarorlik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotining o'zaro bog'liqligini o'rganish nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu masalani tadqiq etish pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish hamda pedagog shaxsini kompleks rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shaxs kamoloti insonning ijtimoiy, hissiy, axloqiy va intellektual rivojlanishining yuqori darajasini ko'rsatadi. Shaxs kamoloti quyidagilar bilan tavsiflanadi: yutuqning aniq motivatsiyasi; barqaror "men-konsepsiya"; mas'uliyat; hissiy muvozanat; boshqa shaxs bilan psixologik yaqinlik qobiliyati va uning yuqori moslashuvchanligidan dalolat beruvchi boshqa fazilatlar ^[2].

V. M. Rusalovning ta'kidlashicha ^[4; 83–97-b.], kamolot parametri har qanday murakkab tizimli ruhiy hosilaga (inson, shaxs, xarakter, intellekt) ega. Inson kamoloti jihatlari ro'yxatiga esa muallif ma'naviy, fuqarolik va kasbiy kamolotni qo'shadi. V. M. Rusalovning fikriga ko'ra ^[4], kamolot tushunchasini ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin: definitiv va akmeologik. Alohida ruhiy funksiyalarning definitiv kamolotga erishishi haqida, qachonki ularning parametrlari mazkur populyatsiyada jinsiy jihatdan yetilgan inson belgilariga mos darajaga yetganda, so'z yuritiladi. Akmeologik kamolot esa ruhiy funksiyalarning o'zining eng yuqori nuqtasiga erishishini xarakterlaydi.



Shaxs faoliyatida sotsial intellektning rivojlanishi boshqalar bilan yanada qoniqarli va uyg'un munosabatlarni o'rnatishga, nizolarni samarali hal qilishga hamda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishga yordam beradi.

Sotsial intellektni qobiliyat sifatida ko'rib chiqish insonlarni bir-biri bilan taqqoslash va sotsial intellekt namoyon bo'ladigan o'zaro harakatlar samaradorligini baholash imkonini beradi hamda unga ma'lum bir xususiyatlar va sifatlar beradi. Sotsial intellektni bunday talqinda ekspertlar baholay oladi. Shunga o'xshash funksiyani shaxsni ko'pdan buyon biladigan va uning hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etishi jarayonini kuzatayotgan insonlar ham bajarishi mumkin. Kichik guruh o'ziga xos ijtimoiy umumiylik bo'lib, unda hamkorlikdagi faoliyat va hayot faoliyati ishtirokchilarining o'zaro harakatlari amalga oshadi ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsning sotsial intellekti bilan komillik darajasi o'rtasidagi munosabatlar faoliyat yo'nalishiga ko'ra tadqiq etildi. Buning uchun tadqiqotda olingan amaliy natijalar o'rtasidagi korrelyatsiyalar Ch. Spirmen usuliga ko'ra aniqlandi. Shaxslarning sotsial intellektini o'rganish metodikasi hamda shaxs komilligini o'rganish so'rovnoma-lari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu yo'nalishlarda sotsial intellekt bilan shaxs kamoloti ko'rsatkichlarining faktorli tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda bunday vazifani qo'yishning bir jihati shundaki, shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida faoliyat yo'nalishlari muhim rol o'ynaydi. Shu holatlarni hisobga olgan holda tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar, ya'ni oliy ta'lim muassasasi talabalari (ta'lim yo'nalishlariga ko'ra), oliy ta'lim muassasalari pedagoglari, umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbar xodimlari hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlari ustida tahliliy yondashuv amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalarining sotsial intellekti bilan shaxsiy kamoloti o'rtasidagi korrelyatsiya tadqiq qilindi (1-jadval).

1-jadval: Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining sotsial intellekti bilan shaxs kamolotini baholash ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya munosabatlari (Ch.Spirmen korrelyatsiya usuli, n=104)

	Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspressiyani tushunish	Shaxslararo o'zaro ta'sir
Shaxsning yo'nalganligi	0,482**	-0,058	0,042	-0,123
Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,330*	0,333*	0,053	0,050
Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari	0,080	-0,122	0,453**	-0,080
Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik	0,137	-0,076	-0,005	0,391*
Tashkilotchilikka qobiliyatlilik	-0,013	-0,304*	0,024	-0,059
Tashkilotchilik qobiliyatidagi individuallik	0,101	-0,072	-0,045	-0,137
Erishganlik motivatsiyasi	0,241*	0,120	0,010	-0,020
O'z meniga munosabat	0,252*	-0,086	-0,068	0,068
Fuqarolik burchi	0,068	0,078	-0,021	-0,076
Hayotiy ustanovka	0,314*	-0,065	0,002	-0,039
Boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati	0,287*	0,170	-0,055	0,049
Shaxs yetukligi	0,318*	0,004	0,030	0,031

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalari "inson-inson" tizimidagi kasb egalari qatoriga kiradi. Ularning sotsial intellekti bilan shaxsiy kamolot jihatlari o'rtasida o'zaro munosabat mavjudligi aniqlandi. Unga ko'ra, pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalarining sotsial intellekti bilan shaxsiy kamolotidagi o'ziga xosliklar bir qator ko'rsatkichlarda aks etdi. Agar ularning tanlagan kasbiga ko'ra sotsial intellektiga munosabat bildirish kerak bo'lsa, albatta, insonlar bilan munosabatga ustuvorlikni aks ettirish zarur bo'ladi.



Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalaridan iborat kontingentlarda sotsial intellektning "muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish" ko'rsatkichi bilan shaxs kamoloti ko'rsatkichlari o'rtasida ko'proq bog'lanishlar aks etdi. Bundan ko'rinadiki, pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalar shaxsning yo'nalganligi (imon-e'tiqodlilik, sobitqadamlilik, hamiyatlilik, beg'arazlik, haqqoniylik, kamtarlik, adolatlilik, insonparvarlik, fidoyilik, vatanparvarlik) ni o'z ichiga oladi ($r=0,482$; $p\leq 0,01$). Bu esa talabalarining "inson-inson" tizimiga asoslangan kasbni bejizga tanlamaganliklarini ko'rsatadi. Ular shaxs sifatida o'z qiziqishlari, qadriyatlar va insoniy fazilatlariga ega bo'lish zarurligini anglab yetganlar.

Shaxsning umumiy xususiyatlari orqali ham suhbatdoshning fikrlarini tushunishga intilishlari kuzatiladi ($r=0,330$; $p\leq 0,05$). Ular ta'lim muhitida pedagog shaxsi uchun zarur fazilatlar – muloqotmandlik, tashabbuskorlik, harakatchanlik, zukkolik, sinchkovlik, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, qulaylikka intiluvchanlik va mustaqillikni shakllantirishga intilishlarini namoyon etadi.

Shuningdek, pedagogdagi kuzatuvchanlik hisobiga "noverbal xulq-atvorni tushunish"ga ham ehtiyoj mavjudligi kuzatiladi ($r=0,333$; $p\leq 0,05$). Ular pedagog sifatida o'quvchilar bilan munosabatda har birining xatti-harakati va o'zini tutishiga ko'ra baholay olish zarurligini hisobga oladilar.

Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining "muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish" jihatini o'zlashtirishlari hisobiga "erishganlik motivatsiyasi" ($r=0,241$; $p\leq 0,05$), o'z "Men"iga munosabat ($r=0,252$; $p\leq 0,05$), "hayotiy ustanovka" ($r=0,314$; $p\leq 0,05$), "boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati" ($r=0,287$; $p\leq 0,05$) va "shaxs yetukligi" ($r=0,318$; $p\leq 0,05$) ko'rsatkichlari bilan ijobiy munosabat aks etdi.

Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining sotsial intellekti bilan shaxsiy kamolotining ayrim jihatlarida uyg'unlik mavjud. Ular o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish, maksimal natijalarga erishishga harakat qilish, imkoniyatlarini namoyon etish, boshqa insonlarni hurmat qilish va o'zini adekvat baholash, mulohazalilik va emotsional muvozanatlilik, empatiya hamda boshqalarni tinglash qobiliyatlarini namoyon etadi.

Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining sotsial intellekti bilan shaxsiy kamoloti jihatlarida alohida munosabat "shaxsning o'ziga xos xususiyatlari" bilan "verbal ekspressiyani tushunish" ($r=0,453$; $p\leq 0,01$) hamda "ijtimoiy ta'sir etuvchanlik" bilan "shaxslararo o'zaro ta'sir" ($r=0,391$; $p\leq 0,05$) ko'rsatkichlarida aks etdi. Agar pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalarida insonlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati namoyon bo'lmasa, ular kasbiy faoliyatda o'z o'rnini topa olmaydi. Atrofdagilarning fikr-mulohazalarini tinglash va tushunish hisobiga mavjud muammolarning yechimi yuzasidan mulohaza yurita oladilar.

Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarida nisbiy ma'noda sotsial intellekt bilan shaxs kamoloti uchun zarur jihatlar o'rtasida aloqalar mavjud. Biroq ularda tashkilotchilikka qobiliyatlilik bilan "noverbal xulq-atvorni tushunish" o'rtasida teskari korrelyatsiya kuzatildi ($r=-0,304$; $p\leq 0,05$). Talabalar kasbiy kamolot bosqichida tashkilotchilikka qobiliyatlilik bilan noverbal xulq-atvorni tushunishga erishishlari mumkin. Bu borada ularda shaxsiy va kasbiy o'sish kuzatilmadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarida "muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish" ko'rsatkichi shaxs yo'nalganligi ($r=0,482$; $p\leq 0,01$), shaxs yetukligi, hayotiy ustanovka, o'z "Men"iga munosabat va erishganlik motivatsiyasi bilan ijobiy bog'langan. Bu holat pedagogik kasbning "inson-inson" tizimiga mansubligi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.
2. Talabalarda muloqotmandlik, empatiya, emotsional muvozanatlilik, boshqalarni tinglash, insonparvarlik kabi sifatlar rivojlangan bo'lib, bu ularning kasbiy identifikatsiyasi shakllanayotganini ko'rsatadi.
3. "Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari" bilan "verbal ekspressiyani tushunish" o'rtasida yuqori ijobiy bog'liqlik mavjud ($r=0,453$; $p\leq 0,01$). "Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik" va "shaxslararo o'zaro ta'sir" ham o'zaro bog'liq ($r=0,391$; $p\leq 0,05$). Bu pedagog shaxsining ta'sirchanlik va kommunikativ kompetensiyasining muhimligini tasdiqlaydi.
4. "Tashkilotchilik qobiliyati" bilan "noverbal xulq-atvorni tushunish" o'rtasida teskari bog'lanish ($r=-0,304$; $p\leq 0,05$) aniqlangan. Bu ayrim talabalar boshqaruv va tashkilotchilikka e'tibor qaratgan sari noverbal sezgirlikni yetarli darajada rivojlantirmayotganini ko'rsatadi.
5. Pedagogika yo'nalishi talabalarida sotsial intellekt va shaxsiy kamolot komponentlari o'zaro uyg'unlashgan, biroq ayrim kompetensiyalar (ayniqsa, tashkilotchilik va noverbal sezgirlik integratsiyasi) yetarlicha muvozanatlashmagan.



Amaliy takliflar:

1. O'quv jarayoniga sotsial-intellektual treninglarni kiritish. Empatiya, faol tinglash, refleksiya va noverbal signallarni aniqlash bo'yicha maxsus treninglar ishlab chiqish. Rolli o'yinlar va pedagogik situatsion mashg'ulotlardan foydalanish.
2. Tashkilotchilik va emotsional sezgirlikni integratsiyalash. Liderlik treninglariga emotsional intellekt va noverbal muloqot modullarini qo'shish. Guruh boshqaruvi jarayonida talabalarni reflektiv tahlilga yo'naltirish.
3. Shaxsiy kamolot dasturlarini ishlab chiqish. "Pedagog shaxsi modeli" asosida qadriyatlar tizimini mustahkamlash. O'zini anglash (self-concept), adekvat baholash va hayotiy pozitsiyani rivojlantirishga qaratilgan psixologik seminarlar tashkil etish.
4. Diagnostika va monitoring. Sotsial intellekt va shaxs kamoloti ko'rsatkichlarini muntazam psixodiagnostik monitoring qilish. Kasbiy shakllanish bosqichlariga mos individual rivojlanish xaritalarini tuzish.
5. Ilmiy yo'nalish uchun tavsiya. Kelgusida longitudinal tadqiqotlar o'tkazib, kasbiy amaliyot davrida tashkilotchilik va noverbal tushunish o'rtasidagi bog'liqlik dinamikasini o'rganish. Sotsial intellektni rivojlantirishning eksperimental dasturini ishlab chiqib, uning samaradorligini tekshirish.

Shunday qilib, pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarida sotsial intellektning "muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish" komponenti shaxs kamolotining aksariyat ko'rsatkichlari bilan ijobiy va mazmunli bog'langan. Bu holat pedagogik kasbni ongli tanlash va kasbiy yo'nalganlikning shakllanganligini tasdiqlaydi. Biroq tashkilotchilik qobiliyati bilan noverbal sezgirlik o'rtasidagi teskari bog'liqlik mazkur kompetensiyalarni integratsiyalash zaruratini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avlaev O. (2023). Some Considerations on Social Intelligence. Science and Innovation, 2(B3), 99–102.
2. Агапов В. С. Акмеологическое становление Я-концепции руководителя / В. С. Агапов. – М.: РАГС, 2009. – 210 с.
3. Журавлев А. Л. Социальная психология личности и малых групп: некоторые итоги исследования // Психологический журнал. – 1993. – Т. 14. – № 4. – С. 4–15.
4. Крайг Г. Психология развития / Г. Крайг. – СПб.: Питер, 2000. – 992 с.
5. Riggio R. E., & Riggio H. R. (2001). Self-report measurement of interpersonal sensitivity. In J. H. Hall & F. J. Bernieri (Eds.), Interpersonal Sensitivity: Theory and Measurement. Mahwah, NJ: Erlbaum. – Pp. 24–32.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.